

Ona yurti - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. M.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 5 - 11 - dekabr N:49 (66538)

8 - dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

"O'ZBEKISTONIMNI SOG'INAMAN"

Musofir bo'lmaguncha, musulmon bo'lmas ekansan, degan gapda jon bor ekan.

Yaqinda sportning yengil atletika, basketbol turlari bilan shug'ullanuvchi do'stlarim Susanna Kurbanova, Dmitriy Kilichev, Anya Shmelyovalar bilan birgalikda nufuzli musobaqada ishtirok etish uchun Moskvaga bordik. Yurtimizning, ota-onamizning qadri o'zga yurtlarda juda bilinarkan. Ikki kun o'tar-o'tmas uyimizni sog'inib qoldik.

Shahar ko'chalarida ketyapmiz, hech kimning biz bilan ishi yo'q. Shu payt minglab odamlar oqimi orasida bir tanish chehrani ko'rib qoldik. Yana kimni deng, sevimli ustozimiz Natalya Mamedovani. U kishi 20 yildan ortiq vaqt mobaynida Urganch shahridagi 3-maktabda o'quvchilarga jismoniy tarbiya fanidan saboq berganlar. Shuningdek, yengil atletika to'garagini ham boshqarib, talaygina olimpiada ishtirokchilarini tarbiyalaganlar.

Endilikda qarilik gashtini surib, Moskvadagi 866-maktabning 1-sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan nabirasi To'maris Alibekovaning tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ustozimiz ham bizni ko'rganlaridan juda quvondilar. Dastlab ularga tutgan guldastamizni, keyin esa o'zimizni mahkam bag'rilariga bosdilar.

- O'zbekistonni qanchalar qo'msayotganimni bilsangiz edi, - dedilar bizni quchoqlaridan qo'yib yubormay. - Ayniqsa, bag'ri keng o'zbek xalqini, oqibatli qo'ni-qo'shnilarimni, hamkasblarim Uzbekova Anna Vasilyevna, Xmelyova Valentina Vasilyevna, Shoimardonova Klara Sharipovna, Kudryavseva Tamara Fyodrovna, direktorimiz Safarova Valentina Vladimirovnalarni juda-juda sog'indim. Shogirdlarim hatto tushlarimga ham kirib chiqishadi.

O'zbekistonimizga - umumiy uyimizga qaytsangiz, ularning bariga ko'pdan-ko'p salom ayting...

O'zga shaharda bo'lganimiz uchunmi yoki musobaqaning nufuzidanmi, biroq hayajonlanayotgandik. Ruhiyatimizdagi bu jur'atsizlikni darhol payqagan ustozimiz bizga dalda berib, musobaqada yonimizda turdilar. Natija yomon bo'lgani yo'q: yurtimizga g'alaba va yorug' yuz bilan ustozimizning alangali salomlarini olib qaytdik.

Nasiba QURBONOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahri.



BIZNING «BITAY» XOLAMIZ

Shampan qishlog'i Parkent tumanining so'lim go'shalaridan biri. Bu qishloqning nafaqat tabiatiga, balki turli millat vakillari bo'la turib, bir oila farzandlaridek ahil, inoq yashayotgan samimiy insonlariga ham havas qilsa arziydi. Tatar millatiga mansub Lebiya opa Halilova ham ana shu qishloqning sodda va samimiy insonlaridan biri. Qishloqning yosh-u qarisi ularga tatarcha erkalab, «Bitay» deya murojaat qilishadi.

Onaxondan bu yerlarga kelib qolishlari tarixini so'rasangiz, beixtiyor ko'zlarida yosh halqalanadi:

- Aslida 1931-yili Qrim shahrida tug'ilganman. O'n yoshli qizaloq edim. Kechagidek ko'z o'ngimda, nemis fashist gazandalari ota-onamni ko'z o'ngimda otib tashlashgan. 1944 - yilda bizlarni O'zbekistonga evakuatsiya qilishgan. Mana 61 yildirki, shu qishloqda yashayapman. Bag'ri keng o'zbek xalqidan behad minnatdorman. Hamqishloqlarim yaxshi kunimda ham, yomon kunimda ham hamisha yonimdalar, ota-onam ham, qarindosh-urug'im ham shular.

17 yoshimda turmushga chiqib, 24 yoshimda uch qizim bilan beva qoldim.

Farzandlarimga ham ota, ham onalik qildim. Ularni boqish uchun tinim bilmay ishladim. Qo'shimcha o'roq olib, dalada 10-15 kunlab yotib qoldirdim...

Hozir ham 75 yoshni qoralagan onaxonimizni ko'pincha daladan topasiz, uyda o'tira olmaydilar. Umri deyarli tokzorlarda o'tayotgan Bitay kampirni goh dalada oshpazlik qilayotgan nabirasi Lemaraga ko'maklashayotgan, goh kimlargadir xomtok qilishni, toklarni simbo'g'ozlarga boylashni o'rgatayotgan holatda uchratasiz.

Mahalla bolalari ularning jonu dili, uylariga chaqirib, shirinliklar bilan siylaydilar.

Ishqilib, onaxonimizning umrlari uzoq bo'lsin-da!

Lola TURDIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.



QONUNLARNING EGASI

Qomusimiz - baxtimiz,
Shijoatu-shaxtimiz.
Huquqimiz yoritar,
G'aflatlarni aritar.

Elimizning ertasi,
Qonunlarning egasi.
Ko'rar ko'zi bo'ladi,
O'n uch yoshga to'ladi.

Har bobida namoyon,
Himoyachimiz ayon.
Kim qonunni biladi,
Yo'li yorug' bo'ladi.

Qomusimiz - baxtimiz,
Shijoatu-shaxtimiz.
Anglaymiz o'z-o'zimiz,
Aytar haqlik so'zimiz.

Jamila ERDONOVA.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,

«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

MATONAT



«...Endi maktabga bor-
mayman, bolalar meni
masxaralab, yurganimda
«kalta» deyishayapti, - dedi
yig'lamsirab».

2-BETDA

BOLALAR SPORTI



"Tong yulduzi"
kutubxonasi

3-BETDA

KULEVEN NIMN YETGIN?..



8-BETDA

1 - dekabr - Xalqaro SPIDga qarshi kurash kuni

«Keyingi paytlarda kattalar tugul bolalar orasida ham narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar uchrayotgani haqida bot-bot gapirilmogda. Bu tig'siz ajal domiga tortilayotgan o'spirinlar guldek umrlarini xazon qilayotganliklarini nahotki bilishmasa? Ularga baralla: «Ko'zingni kattaroq ochgin ukajon, behuda hislar qurboniga aylanmagin singiljon, o'zingni o'zing asra. Unutmagin, oldinda seni baxtli hayoting kutmogda», deya baralla hayqirgning keladi. Og'u o'z domiga tortayotgan ajalning oldini olish uchun nimalar qilish lozimligi haqida Toshkent shahar Narkologiya dispanseri bosh shifokori Oleg Salavatovich Mustafinni suhbatga tortdik:

– Bizning tibbiyot sohamizda 1995 - yilgacha narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar qayd etilmagan edi. Ming afsuski, endi ularning soni ko'paymogda. Balog'at yoshdagi o'spirinlarning bema'ni qiziqishlari oqibatida 3-4 marotaba tatib ko'rilgan ajal urug'i ularni o'z domiga tortib boryapti. Ularda turli nopok

yo'llar bilan bo'lsa-da, heroin moddasini topish hissi kuchli. Narkologiya dispanserimizda ro'yxatda turuvchilarning 80 foizining tanasiga shpris yordamida og'u yuborilgan. Bu usul keng tarqalmogda. Ular orasida qiz bolalarning ham borligi – dahshat! Maktab partasida saboq olish o'rniga atsetonli qorishmalar, benzin shimdirilgan lattalar, hatto yelimdan ham foydalanib, «kayf» qilayotgan ayrim bolalar-chi? Ularning ota-onalari, ta'lim olayotgan maktablari, mahalla-ko'y qayerga qarayapti?! Ko'cha-ko'yda bekor yurish, nasli-nasabi noma'lum sodiq «do'stlar» da'vati, o'z farzandlarini tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermaslik, kattalarning loqaydligi oqibati ana shunday ko'ngilsizliklarga olib kelmogda. Ming afsuski, buni ochiq tan olishimiz kerak.

Bu ko'zi ko'r, qulog'i kar, o'lim sari yetaklovchi qiziqishni oldini olish uchun birgina bizning dispanserimizda 30 dan ziyod malakali shifokorlar xizmat qilishadi. Tibbiy tekshiruvlarimizning barcha turlari bepul. Huzurimizga shifo izlab kelganlarning shaxsi, manzillari mutlaqo sir saqlanadi. Ko'p yillik tajribaga ega ruhshunoslarimiz har bir bemor bilan alohida suhbat o'tkazadi. Umida Obidova, Zafar Otaboyev, Oksana Shcheklina kabi

shifokorlarimizning xizmatidan ko'pchilik mamnun. Bu darddan xalos bo'lishning birinchi yo'li bemorlarning o'zida davo topish uchun xohish bo'lishi lozim. Bir tarafdan bemor, ikkinchi tarafda uning atrofida qilarga ham tushuntirish ishlarini olib boramiz. Oyiga ikki marotaba shanba kunlari ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazib turiladi. Ko'rsatayotgan muolajalarimiz ko'pincha ijobiy natijalar bermogda. Lekin ertaga yana bitta og'ufurush ko'paymasligi uchun hammamiz birdek xushyor bo'lishimiz lozim.

– Yaqinda zangori ekranda qiziqarli chet el filmini namoyish qilishdi. Unda shifokorlar bemor kasalligini tub ildizini o'rganish uchun o'sha xastalik bakteriyasini o'zlariga yuqtirishdi. Shifokor sifatida ozgina geroinni tajriba uchun iste'mol qila olarmidingiz? - deya notabiiy savol bergan edim, bosh shifokorning ko'zlari vahimadan katta-katta

ochilib, qattiq asabiylashganidan qo'llari titrab ketdi.

– Ozgina og'uni tajriba uchun tatib ko'rish, deysizmi? Axir bu o'z joniga qasd qilish-ku. Ertani ko'ra oladigan aqli butun inson hech qachon bunday ish bilan shug'ullanmaydi.

Ha, tubsiz jarlik deya atalmish og'u aslo hech kimni o'z domiga tortmasin.

Shohsanam NURMATOVA.



– Nafisa, bu yoqqa kel qizim, qara, suyaklarni o'rniga shina qo'yadigan shifokor bor ekan, boramizmi? - deya so'radi Shohida xola qizini ko'zlariga qarab. – Televizorga hammani ham chiqarisha-vermaydi-ku, bir narsasi borki, chiqadi, - deya yana qo'shib qo'ydi ona bechora. Nafisa onasiga bir qaradi-yu, indamay xonasiga kirib ketdi. Qizining kap-katta bo'lib qolganida oqsoqlanib yurganini ko'rgan onaning yuragi xijil bo'ldi.

– Baribir olib boraman seni, tuzalmaguningcha qo'ymayman, - dedi ona o'ziga-o'zi...

O'shanda u 5-sinfda o'qirdi. Nafisa juda sho'x va o'yinqaroq qiz bo'lgani uchun sinfidagi qizlar unga «echki» deb laqab qo'yib olishgan edi. Bir kuni u qizlar bilan sport zalidagi arqonga osilib, shiftni kim ushlasa, o'shanga zo'r sovg'a bor, deb birinchilardan bo'lib o'zi arqonga osila boshladi. Endi qo'llari shiftga yetgan ham ediki, pastdagi o'g'il bolalar hazillashib arqonni silkita boshlashdi. Shundoq ham charchab-tolib turgan mitti qo'lichalar arqondan sirg'alib ketdi... Nafisa ko'zlarini ochganida tepasida oq xalatli shifokorlar turishar, boshini silab o'tirgan

onasi «piq-piq» yig'lardi.

– Nimalar qilib qo'yding, bolam, endi nima bo'ladi?

– Menga hech narsa bo'lgani yo'q, yiqilib tushdim, xolos, - dedi Nafisa mungli jilmayib. Ammo endi u yura olmasligini hali-hanuz bilmasdi.

– Tos suyagi singan, tez orada tuzalishi ham mumkin emas, qizingizni faqat davolatish yo'li bilan oyoqqa turg'azishingiz mumkin, ammo baribir bir oyog'i kalta bo'lib qoladi, - dedi shifokor ayol bosh chayqab.

MATONAT

Shohida xola ming bir azob bilan Nafisani kasalxonadan olib chiqdi. Maktabdagi o'qituvchilar, sinfdoshlari uni ko'rishga kelishdi. Maktab direktori Nafisani darslari qolib ketmasligi uchun tushdan keyin o'qituvchilar kelib, uni o'qitib ketishlarini aytib, Shohida xolaning ko'nglini bir oz ko'tardi. Oradan oylar o'tdi. Nafisa yurishni juda xohlar, ammo o'rnidan qo'zg'aladi deguncha og'riqligini zo'ridan titrab ketardi. Shu afozda ikki yil o'tdi. Shohida xola qizini olib bormagan shifokori-yu - kasalxonalarida qolmadi. Nafisa sekin-asta oyoqqa turdi. Ammo yurganida oqsoqlanib yuradigan bo'lib qoldi.

Shohida xola shunisiga ham shukr, dedi. Ammo qizining bo'yi yetgan sari oqsoqlanishini ko'rib, yana ezildi. Bir kuni Nafisa yig'lab, xun bo'lib keldi.

– Endi maktabga bormayman, bolalar meni masxaralab, yurganida «kalta» deyishayapti, - dedi yig'lam-sirab.

– Nafisa, bolam, yur, o'sha shifokorga boraylik, agar bo'lmaydi desa... mayli, boshqa choramiz ham yo'q...

Yozgi ta'til boshlangach, Nafisa onasi bilan o'sha shifokorga qatnay boshladi. Shifokor Jalil

aka ularni iliq kutib olar, kerakli maslahatlarni berardilar. Nafisani oyoqlarini operatsiya qilish yo'li bilan tuzatish mumkinligini eshitgan ona-bolaning ko'ngli yorishdi. Ikki oy muolajadan so'ng, Nafisani operatsiyaga olib kirishdi. Nafisa operatsiya stoliga yotar ekan, unga qarab turgan shifokorning ko'zlariga bir marta qarab oldi va:

Men sizga ishonaman, men albatta tuzalaman, - deb qo'ydi. Chindan ham Nafisa avvaliga hassada, keyin esa o'zi bemalol yura boshladi. Uni ko'rgan sinfdoshlari endi pana-panada uni masxara qilishmas, aksincha, uning inodasiga, matonatiga ich-ichlaridan qoyil qolishardi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

YOMONLIK

Shahzoda sinfidagi eng a'lochi qizlardan. U fan olimpiadalarda ham birinchi o'rinlarni egallab, ustozlarini yuzini yerga qaratmadi. She'r va maqolalari tuman gazetasi sahifalaridan o'rin oldi.

Shahzoda tabiatan chiroyli, qo'xlikkina qiz, ammo bolaligidan nogiron. Ba'zilar unga achinib qarashsa, ba'zilar kamsitib qaraydilar. Sinfdoshi Dilbar ham Shahzodaning ustidan kulganikulgan. Ba'zida piching qilib, Shahzodaning ko'zlarini yosh qilgan kunlari ham bo'lgan. Bir kuni tuman gazetasida tanlov e'lon qilindi. Tanlovda Dilbar ham qatnashadigan bo'ldi. Ular tanlov shartlaridan o'tgach, hay'at a'zolari bir ovozdan Shahzodani g'olib deb topishdi. Bundan alamiga chiday olmagan Dilbar hammaning oldida Shahzodaga: – Nogiron bo'lganing uchun senga rahmdillik qilishdi. Chunki sening to'rt muchang sog' emas-da, bizning qilgan ishlarimiz, yutuqlarimiz ularning ko'ziga ko'rinmaydi, - deb baqira boshladi. Bu gaplardan ko'zlari yoshga to'lgan Shahzoda xonadan yugurib chiqib ketdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Shahzoda Dilbarning pichingiyu, kesatiq gaplariga ich-ichidan yig'lab tursa-da, sinfdoshlariga hech narsani bildirmaslikka harakat qilardi. O'sha kuni juda shiddatli yomg'ir yog'ayotgandi. Dilbar soyaboni yomg'irdan pana qilib, yo'ldan o'tib ketmoqchi bo'ldi, ammo to'satdan urilgan zarbdan hushini yo'qotdi. Kasalxonada o'ziga kelgan Dilbar nima bo'lganiga tushuna olmay, boshi gangib yotardi. Shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun rosa urinishdi. Ammo Dilbar bosh miyasidan jarohat olgani bois, bir umrga nogiron bo'lib qoldi. Shundagina sinfdoshi Shahzodaga bergan ozorlari unga qimmatga tushganini sezdi, lekin uning aqli juda kech kirgandi...

Gulruh ALIYEVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 1-son o'quvchilar ijodiyot markazining «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi.

Sevini nashringiz «Tong yulduzi» ham bu xayrli ishlardan cherda qolayotgani yo'q. «Bolalar sporti», «Sog'yurak - tog'yurak», «Sog'lonjon - polvonjon» kabi doimiy rukular osida maqola va lavhalar berib boryapti.

Ergash aka bilan uzoq suhbatlashdik.
Ikki o'g'li – Shohruh va Jahonshoh ham otasidan karate sirlarini o'rganishga kiritishgan. «Shogirdlarim tatamiga tushganda, o'zim ham tushganday bo'laman. Chunki murabbiy zarbalarning kuchli-kuchsizligini seza biladi. Zarur paytda shifokorlik vazifasini ham bajarishiga to'g'ri keladi. Shogirdining jangini beparvo kuzatdimi, bilingki, bu murabbiy – murabbiy emas. Undaylar sportchini faqatgina qiyinashi mumkin», deydilar kuyunchaklik bilan Ergash aka.

Ergash akaning so'zlarini tinglar ekanmiz, ertangi kunimiz egalari bo'lmish bolajonlarimiz tarbiyasi ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Zohid Kazimov ham Zo'irning maktabdoshi bo'lib, makur bilim maskanining 8-sinfida tahsil oladi. U ham sportga astoydil mehr qo'yganlardan. Sporting kikkboxing turi bilan shug'ullana boshlaganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmasa-da, talaygina natijalarni qo'lga kiritishga ulg'urdi. Gulistonda bo'lib o'tgan o'smirlar orasidagi musobaqada 3-o'rin sohibi bo'lib qaytgan bo'lsa, O'zbekiston birinchi ligi musobaqalarida o'z vazandagilari orasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

— Sportda qo'lga kiritayotgan-yutuqlarim nafaqat o'zimga, birinchi navbatda murabbiyim Rustam aka Magdiyevnikidir,-deydi Zohidjon mamuniyat bilan. Ularning ko'magisiz bu murakkab sport turining siru-sinoatlarini o'rganma olmasdim...

Zohidjon kelgusida huquqshunos bo'lishni niyatida. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, sport uning doimiy hamroh bo'lib qolishiga ishonchimiz komil.

olasiz?

— Biz shugʻullangan paytlari karate toʻla holda «kontakt», yaʼni, ochiq zarbalardan iborat edi. Hozir esa karatening qonun-qoidolari insonga jarohat yetkazmaslik uchun qayta ishlab chiqildi. Jang olib borayotgan sportchilarning yuksak mahorati va taʼqilnmagan zarbalarni berish sanʼatiga baho beriladi. «Kata» mashqlarini esa bemaol gimnastikaga qiyoslash mumkin. Gimnastikaning inson salomatligiga qanchalik foydaligini hammamiz bilamiz. Qolaversa, karatechi koʻpchilik oldida tatamiga chiqa, dadillikni oʻrganadi. Masalan, oʻquvchi oʻqituvchi oldida darsga javob berguncha qanchalik hayajonlanadi. Sportchi esa kattagina hakamlar guruhi hamda muxlislar oldida oʻzini tutishi, oʻrganganlarini amalda koʻrsatishi zarur. Demak, oʻziga ishonch, fikrlash qobiliyati, sogʻlik, vaqtni

O'zbekiston birinчилиgi hamda Markaziy Osiyo chempionatlarida g'olib chiqishgan yoki sovrindorlar qatoridan joy olishgan.

Uni yo'qotish uchun esa ayni yoz faslida egniga issiq sport kostyumi, boshiga qishki shapka kiyib,



o'ʻkazilgan turnirlarda ikki marta ikkinchi o'rin sohibasi, Indoneziya va Qozog'istonda esa sovrindor bo'ldi. Bu yilgi mavsumda u Toshkentda o'ʻkazilgan ITF musobaqasining yakka tartibida, Namangan musobaqasining esa juftliklar tartibida talandlik dugonasi bilan shohspaning yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

— Maqsadim, kuchli elliklikka kirish va «Ulkan toj» turniridagi musobaqalarning asosiy turida ishtirok etish, - deydi yosh tennischi orzulari haqida to'xtalib, Yodgingizda bo'lsa, «18 yoshgacha bo'lgan qizlar orasida Iroda Uimbidon kortlarida g'alaba qozonib, o'zbek qizlari ichida birinchi bo'lib shunday shov-shuvli natijani qayd etgandi. O'shanda respublikamiz ahli u bilan faxrlangandi. Men ham uning ortidan porishni istayman».

- Dilyoraning
kortga birinchi tashrifi

Ustozlari Alisher Sodiqov va O'zbekiston katecholarining Prezidenti Nurxon Sodiqovning

avtomobil va mototsikllari yonida suratga tushishga qiziqadi. O'g'limning safar taassurotlarini tinglab, qalbim cheksiz hayajon va g'ururga to'ladi. Axir Mustaqillik bo'lganida, u Qashqadaryodan, uzog'i bilan Toshkentdan

mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rib kelmoqda. Borgan joylarining tarixiy obidalarini tomosha qilishga harakat qiladi. Muzeilar, amfiteatrlar, shu joyning mahalliy hayvonlari haqida qiziqarli hikoyalarni gapirib beradi. O'zi mashina haydashga qiziqqani uchun xorij mamlakatlari


O'g'lim Zafar ham karate bilan shug'ullanadi. Biroq, unda bilim olishga intilish kuchliroq. Uning tengdurlari oltinchi, Zafar esa 8- sinfda o'qiydi. Yana ikki o'g'limning dunyoqarashi ham keskin farq qiladi. Zafar dunyoviy axborotlarni o'qiganlaridan oladi. Nodir esa bo'plab

maktab stadionida yuguranini bir ko'z oldingizga keltiring. Jiqqa terga botib, kerakli vazni tashlay oldi.

- Dilyoraning
kortga birinchi tashrifi



To'laganova-
g i n a
shunday tez
sur'atda o'z
jam'armasini
ochkolar bilan
boyitgandi. Dilyora
Qirg'izistonda



qatnashdi.

Faqatgina o'tgan yilning o'zida u o'z hisobiga qimmatli 100 ochkoni yozib qo'ydi. Ungacha ham yurtlarimiz orasida faqat Iroda

kuchini sinab ko'rdi. Belgriyaning Xasselst shahrida o'tkazilgan turnirda finalga chiqdi. Bu uning faoliyati davomidagi eng yaxshi natijasi edi. Xalqaro tennis federatsiyasi (ITF) tasarrufidagi turnirlarda bunday natijani osiyolik tennischilardan ilgari hech kim qayd etmagandi. Markaziy Osiyo birinchiligida g'oliblikni qo'lga kiritgach, 14 yoshlilar orasidagi Avstraliya ochiq chempionati arafasida o'tkaziluvchi turnirda

qishlog'imizning sho'r bosgan maydonlarida, biz uchun aziz va qadrdon bo'lib qolgan maktabimiz stadionida to'p suraman. Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Dilshod aka O'rolovdan futbol sirlarini o'rgandim. Bu yil maktabni bitirib, Toshkentga o'qishga boraman. O'qishni tamomlab, qadrdon maktabimga jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib qaytish niyatidaman. Poytaxtda o'zbek futbol yulduzi Mirjalol Qosimov bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'laman balki...

Muzaffarjon shunday deya yana o'yin mardoniga



18

yugurib ketdi.
Abrorbek va
Jahongir
jismoniy

O'zbekiston
chempioni
Ergash aka
Rahimov ustozlik
qiladilar. Bugungi
kunda
murabbiyning
200 nafarga
yaqin shogirdlari
bor. Ergash akani
izlab borsangiz,



3-4 yoshli jajji bolakaylar yoki 18-19 yoshli shogirdlari davrasidan topasiz. Murabbiylikka astoydil mehr qo'rgan bu inson bekorch bolalarni hecham yoqirmaydilar. Yana sport olamiga adashib kirib, shunchaki murabbiylik qilayotganlarni ko'rsalar, asablari buzilib ketadi. Murabbiylik katta san'at, deb ta'kidlaydilar doim.


To'garakka qunt bilan kelgan bolalarga qunt bilan saboq beradilar. Mashg'ulotlardan charchab emas, aksincha, quvvat olib chiqarkanlar. Chunki bolalarning sportga mehri boshqacha-da, deyilar.

3-4 yoshli bolalarni kuzatsangiz, aksariyati

13

AKA-UKA CHAMPIONLAR

Sardorbekning karatani tanlashiga oila muhiti sabab bo'ldi. Akalari yosh karatechilar Baxtiyor va Isroil Rahmonovlarning bolalar va o'smirlar o'rtasidagi Respublika musobaqalarida o'z o'rinlari bor. Ular ko'p bora mamlakat birinchiligi va bahslarida, turli turnirlarda g'oliblikka yoki sovrindor bo'lishga erishishgan.



01

Barchasi Qarshi shahridagi Alisher Sodiqov boshliq «Sofiya» karate klubida shug'ullanishadi. Katta akasi bu yil 17 yoshga to'lgan Baxtiyorning musobaqalardagi yutuqlari ham zalvorli.



**Bu polvonlar yurtim g'ururi,
Ko'zlarida yonar elim sururi.
Bellardagi kurash belbog'i,
Qadriyatim o'chmas chirog'i.**

avvalo, jismini va ruhini toza tutishi kerak.

Hamma polvonlarning o'g'li ham polvon bo'lavermaydi. Mana sizning ikki o'g'lingiz ham biri-biridan qolishmay kurash tushadi. Eshitishimcha, o'zingiz ularni uy sharoitida maxsus joy qilib, kurashga o'rgatibsiz...

Ha, Ha, Ha, - davom etadi. Manavi oyna va shkalalarni qarang, ko'pchiligi singan va yorilgan. Bular ana shu

12

uchun sog'lom va baqarvat bo'lish lozimligini, buning uchun esa sport bilan jiddiy shug'ullanish kerakligini juda yaxshi biladi.

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 14-maktabning 7-sinfida tahsil olayotgan davidan buyon shahar «Kamolot» klubiga qatnab, sportning kiokushunkay karate-do turi bilan shug'ullana boshlagani ham bejiz emas.


2001 - yilda Kattaqo'rg'on shahrida bo'lib o'tgan do'stlik uchrashuvida muvaffaqiyatli qatnashib, 1-o'rinni olishi yosh sportchi hayotidagi ilk g'alaba bo'ldi. Bundan ruhlangan Sadokat mashqlarga yanada jiddiyroq kirishdi. Ustozi 1-Dan qora belbog' sohibi Komil akadan yanada ko'proq usullarni o'rganib olishga intildi. 2003 - yilda bo'lib o'tgan shahar miqyosidagi musobaqada 2-o'rinni olgan bo'lsa, 2004 - yildagi viloyat musobaqasida 3-o'rin sohibi bo'ldi. Hozirgacha uning xonasi devorlarini bezab turgan Diplonlar soni 8 taga yetdi.

Tibbiyot kollejni «Qizil diplom» bilan tamonlagan Sadokatning bolalikdagi orzulari hamon yodida. Militsiya akademiyasiga kirib o'qish niyatida. Ichki ishlar xodimlari formasini kiyib, yurtimiz tinchligi, osoyishtaligini qo'riqlasam, deydi.

29

«ER YIGIT EGARDAN TUSHMAYDI»

Bugun 16 yoshli qashqadaryolik Nodir Xo'jayevga ko'plab sportsevar, karatechi bolalar havas bilan qarashadi. Chunki u yosh bo'lishiga qaramasdan, mamlakat terma jamoasi tarkibida bir necha nufuzli musobaqalarda qatnashdi, Jahon kubogi bahslarida g'olib chiqdi. AQSH, Germaniya, Avstraliya, Vengriya davrlarida o'tgan ochiq



2

qirgish chizig'i

uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritdi. Germaniyadagi KOI (Xalqaro karate tashkiloti) turnirida 3-o'rin, Qozog'iston ochiq chempionatida beshita oltin, ikkita kumush, ikkita bronza medallari sohibi bo'ldi. Vengriyada tashkirlashtirilgan Jahon kubogi bahslarida esa 4-o'rin bilan kifoyalandi. Musobaqalar, tinimsiz mashqlar, golaversa, maktabdagi darslar, bu boladan qanchalik kuch va iroda talab qilishi kunday ravshan.

2000 - va 2001 - yillar ham sermahsullikka oldingilaridan qolishmadi. Nodir O'zbekiston chempionatining yakka va jamoa kumite turi (karateda ikki sportchining bahslashuvi) bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi. 2001 - yil mart oyida AQSHning Atlanta shahrida o'tgan «Atlanta kubogi» musobaqasida ikki oltin, shu yilning dekabrda Vengriyada tashkirlashtirilgan Jahon kubogida ikkita oltin va bitta bronza medallarini qo'lga kiritdi. Shu munosabat bilan oradan uch oy o'tib, Qashidagi «Nasaf» stadionida, futbol bo'yicha navbatdagi mamlakat chempionatining ochilish marosimida viloyat hokimi yosh chempionga tulpor sovg'a qildi.

Hokimning: «O'g'lim, er yigit hech qachon

5

chalindi-yu, sportdagi faoliyatini yakunlashga majbur bo'ldi. Biroq tushkunlikka tushmadi. Hujjatlarini O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga topshirdi va uni imtiyozli diplom bilan tugalladi. Oleg Ogorodovning murabbiysi Irina Limkina bilan birgalikda Olimpiya O'rinbosarlari sport maktabida bolalarga tennis sirlaridan saboq bera boshladi. Yuriting 22 yoshida murabbiy bo'lishiga hissa qo'shgan ustoz! Fiat Sultonbekovni hurmat bilan yodga oladi. Bugungi kunda Lubyansevning shogirdlari orasida ham murabbiylari bor: G'anisher Rahmatullayev bolalarni shug'ullantirayapti. Marina Simakova murabbiy sifatida Germaniya va Gollandiyada bo'lib qaytdi. Natasha, Nikita AQSH Universiteti jamoasida o'ynadi. U deyarli barcha shogirdlari bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. Maktub yozishib turishadi.

Dilyora Yuriy Gennadiyevichni «xuddi otamdek ko'raman», deganida hecham ajablanmadik. Lubyansevga xos jihat kishilardagi eng yorqin g'irralarni yuzaga chiqarishdir. «Sportdagi natijalar qilingan mehnatlarning

26

28

3

4

27

12

qirqish chizig 'i

11

20

AKAMGA SOVG'A QILMOQCHIMAN

Men Mohira Nig'matovaman. Sobir Rahimov tumanidagi 133-maktabning 1-«A» sinfida o'qiyman. Sizlarga akam Sardor haqida so'zlab bermoqchiman. Sardor akam men o'qiydigan maktabning 3-«V» sinfiga boradilar. Biz maktabdan kelib, oyijonimga uy yumushlarida ko'maklashamiz. Men uylarni yig'ishtirib, hovlilarni supurib-sidiraman. Keyin dars tayyorlashga o'tiraman. Lekin akam uy yumushlarini qilib bo'lgach, darslarini ham tez-tez tayyorlaydilar-da, negadir xonalariga kirib ketib, ancha vaqtgacha chiqmaydilar. Bir kuni ularni o'rtoqlari chaqirib qoldi. Paytdan foydalanib, sekingina xonaga kirdim-u, hayron bo'lib qoldim. Shu paytgacha akamning ajoyib surat chizishlarini bilmas ekanman. Ular xonalariga berkinib olib, turli suratlar chizar ekanlar. Hatto o'zlarining rasm chizib o'tirgan suratlarini ham o'xshatib chizibdilar. Yana turli hayvonlar, parrandalar, hatto davlatimiz gerbini ham juda chiroyli tasvirlabdilar. Men suratlarini mazza qilib tomosha qildim. Keyin bu haqda oyijonimga aytgandim, ular suratlarini bolalar gazetasiga bersak, akam juda xursand bo'ladi, dedilar. Keyin biz akamni albomlarini sekin berkitib qo'ydik. O'zlariga sezdirmay, suratlarini chiqqan gazeta bilan yangi yilga Qorbobo qilmoqchimiz. Aziz tengdoshlar, aka va opalarim Sardor akam chizgan suratlariga siz ham baho bering. Bilaman, ular sizlarga ham juda yoqadi.

Mohiraning so'zlarini Ma'suda VOHIDOVA yozib oldi.

Bola tilidan



ADOLAT! ADOLAT NIMA O'ZI?

Adolat! Adolat nima o'zi? Uning qiyofasi rostgo'ylikdir. Bobokalonimiz Sohobqiron Amir Temur davrida el-ulus ahvoli jonlangan. Ilm-fan va madaniyat gullab-yashnagan. Hunarmandchilik ravnaq topgan va siyosiy barqarorlik hukm surgan. O'z davrida bobomiz «Temir tuzuklari» nomi bilan mashhur bo'lgan qomusini yaratgan. Bu esa Movarounnahr xalqlarining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotini boshqargan.

Oradan necha asrlar o'tganiga qaramay, keyingi qomuslarimiz yaratilishida ushbu kitob asosiy poydevor vazifasini o'tadi. 1991-yil Mustaqillikka qadam qo'yib, 1992-yil 8-dekabr adolat va haqiqatga tayangan qonunimizning yaratilishi hozirgi osuda va tinch o'tayotgan turmush sharoitimizning 14 yillik mustahkam ravnaqidir. Bu qomus davlatninggina emas, balki xalqning manfaatlarini va orzu-umidlarini ifoda etgan. Shu bois ham u ko'p yillar hayotimizning gullab-yashnashiga xizmat qilishi muqarrar.

Munisa XOLIQOVA,

Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan maktabning 11 - «A» sinf o'quvchisi.



Qomusimiz — nomusimiz

OFTOB KABI SHU'LA SOCHAR


Diyorimizdagi el-u elatlarning huquqini mustahkam himoya qilayotgan Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga 13 yil to'ladi. 6 - bo'lim, 26 - bob, 128 - moddadan iborat baxtimiz qomusi demokratik tamoyillarimizga asoslangan. Uning 41-

moddasida ko'rsatib qo'yilgandek, respublikamizning har bir fuqarosi millatidan, jinsidan, irqidan va kelib chiqishidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egadir. Maktablarda, akademik litsey, kollejlarda va oliy o'quv maskanlarida minglab biz singari yoshlar yayrab bilim olishmoqda. Yurtimizdagi hukm surayotgan barqaror tinchlik va osoyishtaligimiz qudrati qomusimizning xalqparvarligida. Uni barchamiz birdek nafaqat o'qishimiz, balki uqishimiz zarur.

Litseyimizda muntazam ravishda «Qomusimiz-baxtimiz», «Qonunni bilasizmi?» mavzularida kechalar, suhbatlar, turli tadbirlar o'tkaziladi. Ushbu qiziqarli tadbirlarda bizning sinfimiz hamisha faol. Bugun 8-dekabr qomusimiz qabul qilingan kun munosabati bilan yurtdoshlarimni, barcha tengdoshlarimni, opa va akalarimni qizg'in qutlayman. Ularga sog'lik-salamatlik tilayman. Osmonimiz hamisha musaffo bo'lsin!

Elbekjon RO'ZIMATOV,

A.Navoiy nomli Nafis san'at litseyining 6-«A» sinf o'quvchisi.



MUOMALA SAN'ATI - INSON SIYRATINING KO'ZGUSI

Biz har kuni o'qishga, ishga borar ekanmiz, jamoat joylarida, do'kon va bozorlarda turli kishilar bilan muomalaga kirishamiz. Ba'zi bir insonlar muomalasidan qoniqamiz-u, ayrimlaridan mutlaqo yo'q. Bir kuni o'qishga ketayotib, ikkita qizning suhbatiga guvoh bo'ldim.

- O', Mali, dovdir, «3» baho qo'ysa anqayib turaverdingmi, o'ramadingmi?
- E-e, darsni bilmasam nima qilay?
- A, bundog' aylantir, qulog'iga «lag'mon» il.
- Ovsarmisan, savol beraverib «boshshi» qotirvordi-ku o'ziyam...

Tavba, shunday chiroyli qizlarning muomalasibunchalik xunuk bo'lmasa, deya o'ylanib qoldim. Adabiy o'zbek tilimiz uchun begona so'z va iboralarni yoshlarimiz qayerdan o'rgani shayapti? Balki bunga sabab aksariyat yoshlarimizning kitob, gazeta va jurnallarni o'qimay qo'rganlarida bo'lsa kerak? Bunday holatlarga duch kelganimda, ular o'z oilalarida ukalariga, singillariga ham shu ohangda muomala qiladi va ularning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan o'yga boraman. Kichkintoylar esa kattalardan eshitganini darrov quloqlariga quyib, keyin qolipdek qilib kattalarning o'zlariga qaytarishadi. Ko'chaga, bog'chaga, maktabga borib o'rtoqlariga maqtanib aytadi. Qarabsizki, o'sib kelayotgan yosh avlodning lug'at boyligi ana shunday bemaza so'zlar bilan boyib boradi. Bunday noxushliklarni oldini olish uchun nima qilish kerak? Balki ishini kattalarni tinglashdan, gazeta va jurnallar, badiiy kitoblar o'qishdan boshlash kerakdir?


Rivoyat qilishlaricha, bir kuni yunon faylasufi Arastuning oldiga sergap yigit kelib, notiqlik san'atini o'rganmoqchi ekanligini aytibdi. U dabdabali so'zlarni izhor etganidan so'ng, Arastudan o'qish uchun qancha haq to'lashini so'rabdi.

- Sendan boshqalarga nisbatan ikki baravar ko'proq haq olinadi, javob beribdi faylasuf.
- Nima uchun?
- Chunki sen bilan ikki baravar ishlashga to'g'ri keladi. Senga so'zlashni o'rgatishdan avval, jim turishni ham o'rgatish lozim.

Shukrki, o'zbek tilida chiroyli muomala qilishga yarashadigan so'z boyligimiz bor. Shunday ekan, beo'xshov munosabatlardan qochaylik-da, o'zligimizni anglatadigan muomala madaniyatiga e'tibor qarataylik.

Umida RUSTAMOVA.

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



1. Nok navi.
2. Fasl.
3. Sport o'yinlari.
4. Qalam...
5. Hunarmand.
6. Qat'iyat, chidam.
7. Baliq.
8. Metall ashyo.
9. Volida.
10. Ko'rsatish olmoshi.
11. AQSH shtati.

Tuzuvchi:

Qodirqul MUHAMMEDOV,
Jizzax viloyati, Forish tumani,
Uxum qishlog'i.

KULGUGA NIMA YETSIN?

Aziz bolajonlar, orangizda qiziqarli xanda va askiyalar, ichakuzdi hangomalar tinglashni yoqtirmaydiganlar topilmasa kerak-a? Yuz bora eshitgandan bir bora ko'rishga nima deysiz? Ayni muddao bo'lardi, deysizmi? Menimcha ham shunday. To'garak mashg'ulotimizning bugungi mehmoni «O'zbekkino» milliy agentligi muharriri Sunnat aka AZLAROV ana shunday sizbop hajviy-satirik ko'rsatuvlar tayyorlash niyatidalar.

Sunnat aka kattalar uchun ham, bolalar uchun ham yozadigan ijodkorlar. «Yosh kuch» jurnalida, «Turkiston» hamda «Toshkent oqshomi» kabi gazetalar tahririyatida, «Nashtar» hajviy-satirik jurnalida faoliyat ko'rsatgan Sunnat akaning ko'plab asarlari sahna yuzini ko'rishga ulgurgan. «Qaytar dunyo», «Sabzi o'ra» nomli asarlari Abror Hidoyatov nomli teatrdan sahnalashtirilgan. Muallif pyesasi asosida yaratilgan «Qaytar dunyo» nomli spektakl o'tgan yili 37 ta teatr jamoalari qatnashgan festivalda faxrli o'rinni olishga muvaffaq bo'lgan.

Bular mening Sunnat aka haqida bilganlarim. Bolajonlarni esa ularning bolaligi, orzulari, yodda qolgan qiziqarli voqealari qiziqitardi:

– Bolaligim Toshkent viloyatining Qani qishlog'ida o'tgan, deya so'z boshladilar mehmonimiz. – Siz kabi sho'x va o'yinroq bola edim. O'rtoqlarim bilan Botanika bog'iga ruxsatsiz kirib, mevalarga to'yib qaytardik. Bir kuni bizni qorovul tutib olgan. Qo'lidagi xivchini ko'rib, endi bizni rosa savalasa kerak, deya rosa qo'rqanmiz. Qorovul amaki esa bizni biroz ishlatib, qo'yib yuborganlar. «Mana endi yeganingiz halol bo'ldi», degandilar o'shanda. Shu-shu meva yegimiz kelsa, boboga bog' ishlarida ko'maklashib, qo'yni-qo'njimizni katta-katta shaftolilarga to'ldirib qaytadigan bo'lganmiz...

Bir kuni shahardan tashqarida yashaydigan bir do'stimiznikiga hasharga borgandik. Kechki payt uyga qaytayotsak, poytaxtimiz osmoni uzra qop-qora tutun to'planib turibdi. Nimaligini so'rasak, do'stimning bobosi bu mashinalardan chiqayotgan zaharli tutunlar ekanligini, u ertalabgacha shahar ustiga yopirilishini tushuntirib berdilar. Shuning uchun ham shahrimizda turli xastaliklar ko'payib borayotgan ekan. Shaftoli pishmasligiga ham sabab shu ekan.

Shu voqea sabab bo'ldi-yu, ekologiya haqida ko'proq yozadigan bo'ldim. Bolajonlar jiddiy asarlardan ko'ra, hajviy hikoyalarni ko'proq yoqtirishlarini inobatga olib, yozganlarimni bolalikdagi quvnoq xotiralarim bilan boyitib bordim.

To'garak mashg'ulotingizni ko'rib, o'z ustozlarim yodimga tushib ketdi. Inson o'z-o'zidan qo'lga qalam olib, yozib

ketavermaydi. Ijodkor bo'lishi uchun unga biror inson yoki voqea-hodisa sabab bo'ladi. Men ham adabiyot o'qituvchimiz Yovmiddin akani hamda maktabimizdagi yosh qalamkashlar to'garagini boshqargan Mukarrama opalarni o'zinga ustoz deb bilaman. Shu kungacha nimagaki erishgan bo'lsam, ular tufayli deb bilaman.

Siz ham aziz bolajonlar, sizlarga mehr bilan saboq berayotgan ustozingiz ishonchini

oqlang. Qanday chiqishidan qat'iy nazar, yozishdan charchamang. Yozganlaringizni o'qib, tengdoshlaringiz chehrasi kulgudan yorishib ketsin. Shuningdek, yengil kulgu asosida ko'tarib chiqqan biror muammoingiz ularni o'ylantirib qo'ysin. Biz esa yaxshi yozilgan hajviy hikoyalaringizni sahnalashtirib, do'stlaringiz hukmiga havola qilamiz...

Sunnat aka Azlarovning bu taklifi to'garagimiz a'zolari uchungina emas, gazetamizning barcha muxlislari uchun ham taalluqlidir.



Siz kutgan uchrashuv

D'QOAT, D'QOAT!

Aziz bolajonlar, to'garagimizning sirtqi maktabi a'zolari! Sizlardan ham qiziqarli, quvnoq mavzulardagi hajviy hikoyalar, ssenariylar kutib qolamiz. Ularni gazetamizning tahrir hay'ati a'zolari bilan birgalikda ko'rib chiqib, ma'qul topilganlarini sahifalarimizda e'lon qilamiz. Shuningdek, ular asosida «O'zbekkino» milliy agentligi bilan hamkorlikda bolalar uchun hajviy ko'rsatuvlar tayyorlash niyatidamiz.

Akmal va Sardor avtobusga chiqqanlarida faqat ikkita bo'sh o'rin bor edi. Akmal do'stini turtib o'tirishga imo qildi.

– E-e, baribir keyingi bekatda kattalar chiqib, joyingni bo'shatishga to'g'ri keladi, – istamay javob berdi u.

– Sani bilmadim-u, endi man hech kimga joy bo'shatmayman, – deb Akmal o'rindiqqa o'zini tashladi.

– Qanaqqilib, – yoniga o'tirarkan hayron bo'lib gapirdi Sardor.

– Ko'rasan, endi vallomati chiqsayam joy bo'shatish yo'q.

– Mangayam o'rgat.

– Yaxshi, endi san mani shogirdimsan, etganlarimni qilsang, joning farog'atda bo'ladi.

– Buning uchun nima qilish kerak?

– Hozircha kuzat va

TANIMABMAN...

ustozingni harakatlarini yod olishga harakat qil.

Shu payt avtobus navbatdagi bekatga kelib to'xtadi. Salonga kattalar...



kichik yopirilib chiqdi. Ularning orasida oq ro'mol o'ragan kampir ham bor edi. U to'g'ri kelib, Akmalning tepasidagi ushlagichni mahkam tutdi. Sardor do'stiga qarasa, u uxlab ketyapti, kampir esa uxlayotgan

Akmalga mehr bilan tikilib turibdi. Shu payt pashsha uchib kelib Akmalning peshonasiga qo'ndi. Kampir pashshani qo'li bilan haydab, Akmalning peshonasini silab qo'ydi. Beparvo bola hali ham «uyquni urib» ketyapti. Chiday olmagan Sardor o'rnidan turarkan, deydi:

– Xola, mani joyimga o'tiraqoling.

– T-s-s-s, – ko'rsatkich barmog'ini lablariga bosarkan, Akmalni yelpib kampir sekin ovozda gapiradi:

– Uyg'otib yuborasan. Bechoraginam, hali o'qishga, hali trenirovkaga yuguraverib charchab qolgan ko'rinadi, Akmaltoyim mani.

Kampir pichirlab gapirsa ham o'z nomini eshitgan Akmal ko'zini ochib shoshib o'rnidan turadi.

– Voy, buvi, bu sizmidiz... man bilmabman...

Sunnat AZLAROV.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13279
Buyurtma N: J 1835

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45